



IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANISHGA YETAKCHI TARMOQNI TA'SIRINI ANIQLASH USLULLARI

Ismoilov Xudoyberdi Mamasoat o'g'li

TerAIRI magistranti

E-mail; xudoyberdiismoilov365@gmail.com

https://doi.org/10.5281/zenodo.8388616

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20-September 2023 yil

Ma'qullandi: 25-September 2023 yil

Nashr qilindi: 29-September 2023 yil

KEY WORDS

ijtimoiy-iqtisodiy, infratuzilma, konsepsiya, mintaqaviy turizm, kompleks, yetakchi soha.

ABSTRACT

Ushbu maqolada iqtisodiy o'sishni muhim omili sifatida Mamlakat iqtisodiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatayotgan yetakchi soha hududlarni kompleks barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan

XXI asrda iqtisodiy o'sishning muhim omili sifatida mamlakatimizning barcha hududlarida mavjud salohiyat va imkoniyatlardan samarali foydalanish zarurligi e'tirof etilmoqda. Xorijiy va mamlakatimiz olimlari tomonida o'tkazilyotgan bir qator ilmiy tadqiqotlar natijalari, rasmiy xujjatlarda bayon qilingan ustuvor yo'nalishlar bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Hozirda O'zbekistonda hududlarni kompleks rivojlantirish, mahalliy tabiiy-iqtisodiy resurslar asosida investitsion loyihalar tayyorlashni yanada faollashtirish masalalariga juda katta e'tibor qaratilgan. Ayniqsa, 2022 — 2026-yillarda hududlarni kompleks va mutanosib tarzda rivojlantirishni ta'minlash, hududlarning mavjud tabiiy xomashyo, ishlab chiqarish va mehnat salohiyatidan oqilona foydalanib, ishlab chiqarish kuchlarini optimal joylashtirish hamda aholining turmush darajasini sifatini yanada oshirib borishga oid choralarga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarorini alohida ta'kidlash lozim. Umuman olganda ham nazariya, ham amaliyot nuqtayi nazaridan hududlarning iqtisodiy o'sishni ta'minlashdagi o'rni keskin oshganini ko'rish mumkin.¹ Mamlakatdagi jadal iqtisodiy o'sish sur'atlariga erishish uchun, raqobat afzalliklariga ega korxonalar va tarmoqlar birinchi o'ringa ko'tarilib, ular ma'lum darajada drayver vazifasini bajarishlari lozim bo'ladi. Mana shunday tarmoqlar qatoriga mintaqaviy xususiyatga ega bo'lgan turizmni qo'shish lozim. Chunki Mamlakatda boy tabiiy salohiyatga asoslanadigan turizm sohasini keskin rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Turizm Mamlakat uchun o'ziga xos drayver bo'lib xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili: O'sish nuqtalari (qutblari) va markazlari hududiy nazariya asoschisi fransuz olimi F.Perru tarmoqlarni rivojlanishiga qarab ularni turli

¹ <https://lex.uz/docs/-5841063> 2022 — 2026-YILLARGA MO'ljALLANGAN YANGI O'ZBEKISTONNING TARAQQIYOT STRATEGIYASI TO'G'RISIDA

guruhlarga bo'lgan². Sekin rivojlanayotgan tarmoqlar (to'qimachilik, ko'mir, kema qurilishi va hokazolar), jadal rivojlanayotgan, ammo boshqa sohalarga deyarli ta'sir qilmaydigan tarmoqlar (iste'mol tovarlari ishlab chiqarish), tez rivojlanayotgan va boshqa sohalarni ham rivojlanishiga ta'sir qiluvchi tarmoqlar (stanoklar ishlab chiqarish). ushbu modelning asosiy mazmuni yetakchi tarmoq eng yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlaydi va Mamlakatni boshqa sohalarni rivojiga turtki bo'ladi. Shu bilan birga J.R.Budvil ham o'sish nuqtalari nazariyasini rivojlantirishga sezilarli hissa qo'shdi. Budvil konsepsiyasiga ko'ra ishlab chiqarishning rivojlanishi iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida ham bir xil bo'la olmaydi³. Har doim dinamik rivojlanadigan tarmoqlarni aniqlash mumkin ular Mamlakat iqtisodiyotini rivojlanishi uchun rag'batlantiruvchi xisoblanadi va rivojlanishi va rivojlanish drayverlari sifatida namoyon bo'ladi.

O'sish nuqtalari Budvil tomonidan qo'yidagi guruhlarga ajratilgan:

- yirik shahar;
- o'rta va kichik shaharlar;
- o'rta kattalikdagi sanoat korxonalari;

J.R.Budvilning fikricha, hozirda o'sish nuqtalari (qutblari) nazariyasidan keng foydalanilgan holda, uni yangi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sharoitiga moslashga qaratilgan takliflar ishlab chiqish dolzarb bo'lib qolmoqda. Shu o'rinda drayver sifatida asosan sanoat korxonalari emas, balki xizmat sohalarni o'rni va ahamiyati oshib bormoqda. Ayniqsa keng imkoniyatlarga ega turizm sohasini hududlarda o'sish nuqtasi va etakchi lokomotiv bo'lib xizmat qilishi, iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga nisbatan yuqori ta'sir kuchi bilan ajralib turadi.

Tadqiqot metodologiyasi:

Mamlakat iqtisodiyoti va turizmning bir-biri bilan o'zaro bog'liqligi ularni oldiga qo'yiladigan asosiy maqsad va ustuvoryo'nalishlarning uyg'unligi bilan isbotlash mumkin.

Mamlakat va turizmni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari bir-biriga juda o'xshab ketadi, lekin ularning har birini bevosita manfaati borligini ham yoddan chiqarmaslik kerak. Asosiy yo'nalishlarning borligini avvalombor hududiy resurslardan (tabiiy, iqtisodiy, mehnat, yer va suv, mahalliy xomashyo) oqilona foydalanish, raqobatbardoshlikni oshirish, yangi ish o'rinlarini tashkil etish va yuqori malakali kadrlar tayyorlash, aholining talablarini qondirgan holda, ularning turmush sifatini yanada yuqoriga ko'tarishda ko'rishimiz mumkin.

Mamlakat iqtisodiyotini va turizmni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari

Mamlakatni kompleks rivojlantirishning vazifalari va yo'nalishlari	Turizm sohasini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari
Mavjud imkoniyatdan kelib chiqqan holda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash	Mamlakatda joylashgan turizm sub'ektlarining rivojlanishini ta'minlash
Tarmoqlar bilan birgalikda raqobatbardosh	Turizm sohasining raqobatdoshlik

² <https://abiturtest.uz/mavzular/f-perruning-osish-qutblari-va-rivojlanish-markazlari-goyasi-haqida/>

³ <http://www.hozir.org/ozbekiston-respublikasi-oliy-va-orta-mahsus-talim-v7.html?page=77>

mahsulotlar (xizmatlar) ishlab chiqarishni tashkil etish, eksport turini va hajmini ko'paytirish	afzalliklaridan to'liq foydalangan holda xalqaro turizmni yanada kengaytirish
Investitsiya dasturlarini tayyorlash va ularni amalga oshirish, xorijiy investitsiyalarni taklif etish	Turizm sohasida umumiy ovqatlanish shahobchalari tizimini rivojlantirish va sifatini yaxshilash
Muhandislik, yo'l transporti va aloqa kommunikatsiyalari infratuzilmasini ham rivojlantirish	Turizm xizmatlari sifatini yaxshilash va turlarini ko'paytirish maqsadida infratuzilmani rivojlantirish
Qishloq xo'jaligini yanada rivojlantirish, yer-suv resurslaridan samarali foydalanish, go'sht-sut , meva-sebzavot mahsulotlarini yetishtirishni kengaytirish va ularni saqlash va qayta ishlash	Turizmni rivojlantirish maqsadida yangi investitsiya loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirish, xorijiy investorlar uchun qulay shart-sharoit yaratish
Aholining bandligini ta'minlash, yangi ish joylari tashkil etish, xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish, aholi turmush darajasi sifatini oshirish	Xalqaro turizm bilan bir qatorda ichki turizmni ham rivojlantirish, yangi ish o'rinlarini tashkil etish, malakali kadrlar tayyorlash, aholini turizm xizmatlariga bo'lgan talabini oshirish

Tahlil va natijalar:

O'zaro bog'liqlikni ikki taraflama ekanligini ta'kidlash lozim.

Birinchi, Mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni turizmga ta'siri; ikkinchi, ushbu sohani, Mamlakatni barqaror rivojlanishiga ta'siri.

Ilmiy nazariya va uslubiy nuqtayi nazaridan turizmni Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri deyarli o'rganilmagan.

Turizmni rivojlantirish deyarli barcha iqtisodiy sub'ektlarga katta qulaylik olib keladi. O'z navbatida sayyohlar o'zlari xohlagan mahsulot va xizmatlarni oladilar, sayyohik kompaniyalari va tadbirkorlar yuqori ish haqi va foydaga ega bo'ladilar, Mamlakat esa o'z mablag'larini soliq tushumlari orqali to'ldiradi. Turizmning mamlakat va Mamlakat iqtisodiyotidagi o'rni turlicha ko'rinishga ega bo'lib, ba'zi sohalarga qo'shadigan hissasi yuqoriligi bilan ajralib turadi. Ammo ushbu holatni amalga oshirish avvalombor iste'mol talablarini to'liq qondirish, ya'ni o'ziga xos qadr qimmatlar tizimini, sayyohik kompaniyalarning egalari, ularning mahsulotlarini iste'mol qiluvchi sayyohlar, Mamlakatda ularni qabul qiluvchi xodimlar shakllantirishi lozim.

Turizmning Mamlakatdagi ijtimoiy samaradorlikka bevosita ta'sirini alohida ko'rib chiqish maqsadga muvofiq. Bu yo'nalishda xorijda bir qator ilmiy ishlar chop etilishiga qaramasdan, turizmni ijtimoiy rivojlanishga turtki bo'lishi va aholi turmush darajasiga ta'sirining ilmiy-nazariya asoslari hali to'liq shakllanmagan. Avvalo hududiy turizm bozorini ijtimoiy sohaga ta'sirining asosiy yo'nalishlarini aniqlab olish kerak.

Turizmning ijobiy ta'siri birinchi navbatda Mamlakatdagi milliy qadriyatlar, urf-odatlarini mustahkamlash va yanada rivojlantirishga olib keladi. Bu yo'nalish mamlakatda o'ziga xos madaniy sayyohik brendni shakllanishi va sayyohlarni taklif qilishning muhim mexanizmi bo'lib xizmat qiladi. Turizm infratuzilmasini rivojlantirishda yangi kommunikatsiyalar,

axborot texnologiyalarni qo'llash aholining ijtimoiy qarashlari va faoliyatlarini ijobiy tarafga o'zgarishiga olib keladi. Aholi bandligini ta'minlash o'z navbatida ularni daromadlarini ortishiga, bevosita turmush sifatini oshishiga olib keladi. Ichki turizmni qo'llab-quvvatlash, aholining dam olishi uchun qulay sharoit yaratilishi, ularni salomatligini tiklash va mustahkamlashga muhim zamin yaratadi.

Mamlakatda turizm sohasida mehnat qiladigan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini rivojlantirish, yangi o'quv texnologiyalaridan foydalanish, jahon standartlari talabiga mos keladigan kadrlarni shakllantirish ta'lim tizimi uchun o'rnak bo'lishi mumkin. Bundan tashqari asosiy ijtimoiy muammo bo'lgan aholi bandligini ta'minlashda ham turizm salohiyatidan samarali foydalangan holda yangi ish o'rinlarini tashkil etilishi yirik ijtimoiy samara natijasi bo'lib xizmat qiladi.

Jahon tajribasidan kelib chiqqan holda, turizmining asosiy iste'molchilari o'rta sinf vakillaridir. Ushbu omil mamlakatda va hududlarda o'rta sinfni shakllanishi uchun keng imkoniyatlar yaratib beradi.

Turizmni nafaqat hududiy tarmoq sifatida emas, balki tarmoqlararo soha ekanligini e'tiborga olgan holda, uni hududlararo ijtimoiy tabaqalashuvga ta'sir qilib, aholi turmush darajasidagi farqlarni kamaytirish va yaqinlashtirish uchun imkon yaratadi.

Ijtimoiy soha to'g'risida gapirganda, turizmni ushbu sohaga ham taalluqli ekanligini ta'kidlash lozim. Turizmning ahamiyati uning ijtimoiy sohadagi quyidagi faoliyatlari bilan belgilanadi:

- aholini ijtimoiy-madaniy darajasini shakllantirish va qo'llab-quvvatlash;
- moddiy va nomoddiy boyliklarni iste'molchiga etkazib berish;
- iste'mol jarayoniga xizmat qilish;
- aholi salomatligini ta'minlash;

Turizm jamiyatda o'ziga xos ijtimoiy vazifalarni bajaradi. Ular aholini mehnatga layoqatini tiklash va rivojlantirish, bo'sh vaqtdan samarali foydalanish, aholi bandligini ta'minlash va daromadlarini oshirish, dam olish infratuzilmalarini rivojlantirishdan, salomatlikni tiklashdan iborat.

Fikrimizcha, hududiy turizm ijtimoiy yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Birinchidan, turizm inson manfaatlarini uchun xizmat qilish; ikkinchidan mikro va makro darajada daromadlar olishga mo'ljallangan, ya'ni ijtimoiy yo'naltirilgan va bozor mexanizmlarini qo'llashga qaratilgan desak to'g'ri bo'ladi.

Xulosa va takliflar:

Xulosa sifatida shuni aytish joizki turizm Mamlakat iqtisodiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatgan holda, yetakchi soha sifatida hududlarni kompleks va mutanosib rivojlantirish, uzoq va o'rta muddatda mavjud salohiyatdan samarali foydalanish eng asosiysi aholi turmush darajasi sifatini oshirish uchun asosiy drayver bo'lib xizmat qiladi. Mamlakat sharoitida quyidagilardan foydalanish maqsadga muvofiq:

- iqtisodiy islohotlarning milliy modelini hisobga olgan holda markazlashtirish, hududlararo integratsiya, atrof-muhitni muhofaza qilish kabi umumiy tendensiyalarga hududiy siyosatni bosqichma-bosqich moslashtirish;
- hududlarni (turizmni) rivojlantirishda budjetlararo munosabatlarni hal etish bilan bir qatorda, hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini e'tiborga olgan holda investitsiya

siyosatini amalga oshirishga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq;

- hududlarning majmuali va barqaror rivojlanishi, shu jumladan, turizmni tartibga solishning asosiy omili sifatida infratuzilmalarni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. . O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 — 2026-YILLARGA MO'LJALLANGAN YANGI O'ZBEKISTONNING TARAQQIYOT STRATEGIYASI TO'G'RISIDA
 2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mahalliy xokimiyat organlarining moliyaviy erkinligini oshirish, soliq va moliya organlari javobgarligini kuchaytirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi. Farmoni. – Toshkent, 2017y 13 dekabr.
 3. 2019 — 2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish konsepsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi PF-5611-sonli Farmoniga 1-ilova, www.lex.uz.
 4. Buylenko V.F. Razvitie sovremennogo turizma / V.F. Buylenko. M.: Feniks, 2008. 416 s.
 6. NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI SANOAT VA QISHLOQ XO'JALIGI ASOSLARI fanidan ma'ruzalar matni Navoiy-2008 38b
- F.Perruning «O'sish qutblari va rivojlanish markazlari g'oyasi haqida.

INNOVATIVE
ACADEMY